Bizning zamonda, hurfikrlilikka (ko'p adabiyotlarda pluralizm ham deyiladi) keng o'rinn berish, har qanday fikrni atroflicha tahlil etish, mulkiy munosabatlardagi shartnomalarni moliviyi va qonuniy talablarni aniq izohlash lozim bo'lib qoldi. Chunki, davr taqozosi bilan mamlakatga yot g'oya bilan birga, xorijiy adabiyotlar o'rganish va undagi so'zlar iqtisodiyotga kirib kelishi turli tushunchalar chalkashtirilib, natijada mamlakat mulkiga va uning natijasida tabiiy resurs va iqtisodiyotiga zarar yetkazish hollari ham bor gap. Shu bois, mulkchilikda milliy havsizlik yoki iqtisodiy milliy havsizlik tushunchalariga anqlik kiritilishi jamiyatimizning markaziy muammosiga aylandi.

Sobiq sovet ittifoqi<sup>9</sup> davlatining konstitutsiyasida SSSRning iqtisodiy tizimi sovet fuqorolarining mulki, kollektiv va davlat mulki asosida rivojlanadi. Undagi yer va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi o'zining tabiiy holatida shu hududda yashovchi xalqlarning ajralmas mulki bo'lib, xalq deputatlari Kengashlari tasarrufida fuqorolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning foydalanishi uchun beriladi. SSSR fuqarosining mulki uning shaxsiy mulki bo'lib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalilanadi.

"Davlat mulki bu umumittifoq mulki, ittifoq respublikalarining mulki, avtonom respublikalarining mulki, avtonom viloyatlar, avtonom okruglar, hududlar, viloyatlar va boshqa ma'muriy-hududiy birliklar (kommunal mulk)", – deya yozilgan.

Ushbu sobiq konstitutsiyada tabiiy boylik xalq mulki ekanligi belgilanmoqda, lekin bu mulkni avaylab asrash, keyingi avlodlarga yetkazish omili tugul, himoya qilish, uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash to'g'risida o'ylab ham ko'rilmagan. Sovetlar mulkini umumittifoq yemirdi, chet el diplomatlari madaniyat bilan tabiiy resurslarni xorijga tashib ketdi, buning natijasida sobiq sovet davlati bir inson umricha yashadi xolos. Demak, davlat tabiiy boyligini asrash, xalq mulkini himoya qilish iqtisodiy xavfsizlik chora-tadbirlarining asosiy muammosi bo'lib, uning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash birinchi sharti bo'lsa, ikkinchi sharti esa, xalk mulkining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashi lozim deya xulosa qilamiz.

Sobiq sovetlar mamlakati qarama-qarshi ufqida joylashgan hozirgi kunda ham yirik davlat hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlarida mulkka bo'lgan e'tibor va uning konstitutsiyasi bilan quyida tanishamiz.

AQSh konstitutsiyasi 1787-yil 17-sentyabrida Filadelfi shahrida qabul qilingan. Huquqlar to'g'risidagi Billni tashkil etuvchi boshqa tuzatishlar bilan u 1789-yil 5-sentyabrdi Kongress<sup>10</sup>ga kiritilgan 1791-yil 15-dekabrdi kerakli miqdordagi shtatlar tomonidan qabul qilingan.

Unga ko'ra, AQSh g'aznasidan oltin va qimmatbaho metallar faqat maxsus qonunlar bilan tasdiqlangan hujjalalar asosida olinadi, davlat dollarining kelib tushishi va sarflanishi to'g'risidagi bat afsil hisobotlar ma'lum muddatda e'lon qilinadi.

Hech bir shtat<sup>11</sup> Kongressning roziligidan import qilinadigan yoki eksport qilinadigan tovarlarga har qanday soliq yoki bojlar qo'yishga haqli emas, bunday bojlar va soliqlardan olingan sof daromad Qo'shma Shtatlar G'aznachiligi tomonidan boshqariladi va barcha bunday qonunlar Kongress tomonidan qayta ko'rib chiqilishi va nazorat qilinadi.

Kongressning roziligidan hech bir davlat belgilanmagan soliqni undirishga, tinchlik davrida armiya yoki harbiy kemalarni saqlashga, boshqa davlat yoki xorijiy davlat bilan bitim yoki shartnoma tuzishga yoki urush boshlashga haqli emas.

Asossiz tintuv va hibsga olish bilan odamlarning shaxs, qog'oz va mulk daxlsizligi haqidagi huquqi buzilmaydi, tintuv va hibsga olish to'g'risidagi farmoyishlar qasamyod yoki tasdiqlash bilan tasdiqlangan uzrli sabab-larga ko'ra, tintuv o'tkaziladigan joy va hibsga olinadigan shaxslarning aniq tavsifi bilan berilishi mumkin.

Hech kim sudlovning iltimosnomasi yoki ayblov xulosasi bo'lmagan taqdirda, hech kim sharmandali jinoyat uchun javobgarlikka tortilmaydi,

Bir jinoyat uchun hech kim ikki marta hayotini yo'qotish yoki tana daxlsizligini buzish bilan tahdid qilinishi mumkin emas, hech kim jinoyat ishida o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majburlanmaydi;

Hech kim qonun hujjalalarida belgilangan tartibda hayotdan, ozodlikdan yoki mulkdan mahrum etilishi mumkin emas;

Xususiy mulk adolatli tovonsiz davlat ehtiyojlarini uchun olinmaydi.

<sup>9</sup> Qarang: Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining Konstitutsiyasi 1977-yil 7-oktyabrida 9-chaqiriq SSSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari 7- sessiyasida qabul qilingan. 2-bob. Iqtisodiy tizim. – 3-b.

<sup>10</sup> Qarang: AQSh Konstitutsiyasi Bill Huquqlari. Beshinchi tuzatish. 1791-yil 15-dekabr.

<sup>11</sup> Izoh: 50ta davlatlarni barlishtirgan AQSh.



Jinoiy javobgarlikka tortilmasligi va o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majburlanmasligi, davlatning adolatli tovonsiz xususiy mulkni tortib olishga haqqi yo'qligi qayd etilmogda.

Shuni ta'kidlash kerakki, Amerika qonunchiligidagi jazolanish emas, balki qayta jazolanish kafolati mavjud. Bu shuni anglatadiki, shaxs sud tomonidan oqlanganidan keyin xuddi shu jinoyat uchun qayta ayblast mumkin emas.

Amerika davlatidagi mulkka bo'lgan bunday munosabat metin temirdek konstitutsiyasida belgilangan bo'lib, undan 232 yildan buyon amalda foydalani kelmoqda. Shuningdek, AQShning federal rezervlariga qarashli Fornoks<sup>12</sup> oltin ombori mavjud bo'lib hozirgi kunda dunyodagi davlatlar oltinining 20 foizi saqlanadi. U 2-jahon urushidan keyingi davlatlarning pul birligini to'lov qiymati sifatida, keyinchalik esa, davlatlarning to'lov majburiyatlar sifatida tashkil etilgan. Ushbu ombor qimmatli sirlarini Amerika moliya vaziri ham bilmasligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud, u ombor tashkil etilganidan buyon na audit o'tkazilgan va na bir mamlakatning rahbari kirib ko'rgan, mana shu mamlakatning o'z mulkiga nisbatan iqtisodiy himoya qobig'i hisoblanadi.

Mulk munosabatlari to'g'risida Yaponiya jamoatchiligi tahlili bilan tanishib chiqamiz.

Yaponiya konstitutsiya<sup>13</sup>si 1889-yilda qabul qilingan. Uning namunasi Yevropa davlatidagi eng reaktsion<sup>14</sup> konstitutsiya Purussiya konstitutsiyasi bo'lib, u 1850-yilda qabul qilingan. Mazkur konstitutsiya imperatorga cheksiz qonuniy imkoniyatlar bergen. Imperatorga qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati amallarini bergen.

Yaponiya konstitutsiyasiga rasmiy ravishda Meydzi o'sha vaqtning imperatori o'zgartirishlar kiritgan. Konstitutsiya 11 bob va 103 ta moddadan iborat. U 1947-yil 3-mayidan kuchga kirgan. Hozirga qadar bu konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritilmagan.

Yaponiya konstitutsiyasi mulk sohasida, asosan, shaxsiy mulk huquqni, uning erkinligini ifodalash va mulkning yangi iqtisodiy faolligiga asoslanadi. Unda xususiy mulk huquqi davlat tomonidan himoyalanadi. Xususan, Yaponiya konstitutsiyasining 29-moddasi<sup>15</sup>da mulk sifatiga alohida e'tibor berilgan bo'lib unga ko'ra, mulkga egalik qilish huquqi daxlsizdir. Mulk huquqlari jamiyat manfaatlariga muvofiq qonun bilan belgilanadi.

Yaponiya Konstitutsiyasining 98-moddasi<sup>16</sup>da "Ushbu konstitutsiya xalqning oly qonunidir. Hech bir qonun, farmoyish, imperator qarori yoki hukumatning boshqa hujjati yoki uning qoidalariga zid bo'lgan bir qismi yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Yaponiya tomonidan tuzilgan shartnomalar va davlatlarning belgilangan qonunlariga siodqlik bilan riosa qilish kerak"ligi yozilgan.

Yaponiya konstitutsiyasi mazkur modda bilan ushbu davlatning "Yerlarni egallab olish to'g'risidagi qonun"i bilan davlat chorasini qo'llash tartibi, shartlari va oqibatlarini belgilaydigan bir qator maxsus aktlarini tartibga soladi.

U Yaponiya daryosi to'g'risidagi qonun, shahar rejalashtirish qonuni yuk tashish to'g'risidagi qonun, ko'p funksiyali to'g'on (atom energiya stansiyasi), madaniy boyliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun, va boshqalar normativ-huquqiy hujjatlar asosida mulk chegara qobig'i belgilangan.

Shuningdek, ekspropriatsiya<sup>17</sup> mexanizmi Yaponiya Fuqarolik Kodeksining amal qilishiga asoslanadi loyiha tashabbuskori va yer egasi o'rtaida yer uchastkasini majburiy sotib olish/sotish shartlari to'g'risida shartnomada tuzilgan taqdirda, Musodara qilish to'g'risidagi qonunning 116–121 bo'limlari bilan yer "Yerlarni olib qo'yish to'g'risida"gi Qonunning 39, 47<sup>3</sup>-moddalari bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, tashabbuskor loyiha egasi avvalo:

- 1) olib qo'yish maqsadida ekspropriatsiya qilish to'g'risidagi mulk qarorlariga tegishli bayonot e'lon qiladi, yoki
- 2) nisbatan muomaladan hududni ozod qilish uchun ta'riflar obyektlar (yer va mulk bo'yicha tegishli hujjatlar ilova qilingan holda) taqdim etilishini belgilaydi.

Bu holat namunali hisoblanadi. O'z pullariga ishonadigan milliy va xorijiy investorlar uchun va Yaponianing vakolatli organlar va tashkilotlarning boshqa mulki bo'lsa, bu "mulk huquqining daxlsizligi" inson va shaxsning asosiy huquqi sifatida emasligidan dalolat beradi.

Shunchaki deklaratsiya, balki davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining yetakchi tamoyili bo'lib, bunga barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi ushbu mulk huquqning buzilishiga yo'l qo'yish yoki xususiy huquq manfaatlari muvozanatini tiklash jamoat xavfsizligini ta'minlash paytida ularning buzilishi yoki jamoat manfaatlari himoya qilish tartibini belgilaydi.

Yaponiya qonun ustuvorligining amal qilishiga asoslangan izchil va bashorat qilinadigan mulk to'g'risida siyosat olib boradi. Huquqlarni cheklashga ruxsat beradi, ulardan tashqari mulkni suiiste'mol qilish taqiqilanadi.

12 Izoh: AQShda dunyodagi ba'zi davlatlarning oltin saqlash ombori mavjud.

13 Qarang: The Constitution of Japan promulgated on November 3, 1946, came into effect on May 3, 1947. Chapter III. – p. 4.

14 Izoh: Reaksiya – o'z manfaatlari uchun kurashuvchi, eski tartibni saqlab qolish yoki tiklashga intiluvchi.

15 Qarang: The Constitution of Japan promulgated on November 3, 1946, came into effect on May 3, 1947. Chapter III. – p. 4.

16 Qarang: The Constitution of Japan promulgated on November 3, 1946, came into effect on May 3, 1947. Chapte X. – p. 10.

17 Izoh: Ekspropriatsiya – davlat hokimiyati tomonidan majburiy ravishda (haqini to'lab yoki to'lamasdan) mulkdan mahrum qilish. Ekspropriatsiyaning asosiy turlari natsionalizatsiya, rekvizitsiya, musodara hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasida mulkka bo'lgan munosabat to'g'risida quyida tanishamiz.  
O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprelida yangi tahriri umumxalq referendumida qabul qilindi, 1-maydan kuchga kirdi. Ushbu konstitutsiyaning 41-moddasida:

Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi, deb belgilangan, xavfsiligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q.

Bizda mulkchilik "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonun<sup>18</sup> bilan tartibga solingen uning 3-moddasida mulk obyektlari belgilangan, unga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar, mahsulotlar, turar joy va kvartiralar, mahsulot belgilari, sanoat namunalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikrosxemalarning topologiyasi, seleksiya yutuqlari, mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, asbob-uskunalar, moddiy va ma'nnaviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar; insонning mehnat qilish qobiliyati, mamlakat mulk obyekti hisoblanadi.

5-moddasida mulk shakllari belgilangan, unga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasida mulk quyidagi shakllarda bo'ladi:

- xususiy mulk, shirkat (jamoa) mulki, ma'muriy-hududiy tuzilmalarning mulki (kommunal mulk), davlat mulki, aralash mulk va
- boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulklardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Mazkur qonun mamlakatimiz ichki mulkchilik tartibini belgilaydi. Davlatning mulkiga, tabiiy resurslariga ta'sir qiluvchi tashqi omillar xujumidan himoya qiluvchi qonuniy qobiq vositasi, ya'ni iqtisodiy xavfsizlik talablarini yo'q.

Shuningdek, 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab, xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita cheklashni nazarda tutuvchi, mulkiy munosabatlarda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini to'liq joriy etishga to'sqinlik qiluvchi tartiblar, talablar va cheklovlar bekor qilindi<sup>19</sup>.

Ushbu farmon mamlakatimiz yer uchastkalari va yer mulki bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Tashqi investorlarga berilgan yer uchastkalarining yer osti boyliklari saqlash va ularni tartibga solish chegara qobig'ini belgilash muammosi hanuz o'z yechimini topgani yo'q.

Shu munosabat bilan, biz mamlakatimizning moliyaviy chegarasi va uning iqtisodiy xavfsizligi to'g'risida o'zbek olimlari xususiy fikrlari bilan tanishamiz.

H. P. Abulqosimov<sup>20</sup> "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasida eng umumiylar tarzda mamlakatning moddiy va nomoddiy, qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan iqtisodiy salohiyati aks etadi, degan fikr keltirilib, lekin ushbu monografiyada boshqa iqtisodiy adabiyotlarda turlicha fikrda bayoni keltirilgan. Ung ko'ra bir guruh rus olimlari mazkur tushunchani iqtisodiy mazmuni sifatida mamlakatning yetarli mudofaa salohiyati, davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo'lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining holati sifatida ta'riflagan. Masalan, D. V. Gordienko<sup>21</sup>ning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik milliy xo'jalikning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanish holati bo'lib, bu holat jamiyatning izchil rivojlanishini, ichki va tashqi salbiy omillar ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda ham iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashi lozim.

L. I. Abalkin<sup>22</sup> Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini davlat siyosati darajasida uch elementiga ajratib quyidagicha ta'rif etgan:

- iqtisodiy mustaqillik. Jahon xo'jaligida iqtisodiy mustaqillik mutlaq xarakterga ega emas, chunki u xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni o'zaro bog'liq qilib qo'yadi. Bunday jarayonda iqtisodiy mustaqillik mazmuni yo'q bo'lib, davlatning iqtisodiy resurslar ustidan nazorat o'rnata olish imkoniyatini, jahon savdosи, kooperatsiya aloqalari, ilmiy-texnika yutuqlarini ayriboshlashda teng ishtirok etish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ishlab chiqarish, samaradorlik va sifat darajasiga erishishni anglatuvchi tushunchadir;
- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. U shaklidan qat'i nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagи holatning yomonlashuviga,

<sup>18</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida Qonun 1990-yil 31-oktyabr

<sup>19</sup> Qarang: "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulknинг kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Pf-198-sonli Farmoni 2022-yil 24-avgust.

<sup>20</sup> Qarang: Abulqosimov H. Iqtisodiy xavfsizlik. –Toshkent, "Akademika", 2006. – 14-b.

<sup>21</sup> Qarang: Гордиенко Д. В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. – М.: Infra-M. 2009.

<sup>22</sup> O'sha manba.



beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishini (ya'ni iqtisodiyotdagi kriminal tuzilmalarga qarshi kurash, daromadlar taqsimlanishida jiddiy farqlar, tabaqlanishning kelib chiqishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik) taqozo etadi;

- rivojlanish va taraqqiy etishga qodirlik darajasi. Bunda investitsiya va innovatsiyalar uchun qulay muhitning yaratish, ishlab chiqarish faoliyatining muntazam modefikatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi, xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiyl madaniy darajasining o'sib borishi milliy iqtisodiy barqarorlik mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi.

E. Buxvald<sup>23</sup> ijtimoiy nuqtaiy nazardan, iqtisodiy xavfsizlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi hayot faoliyatining normal sharoitlarini yaratish, xalq xo'jaligini resurslar bilan barqaror ta'minlash hamda milliy davlat manfaatlarini amalga oshirishga qodirligini ifodalaydigan sifat ko'sratkichi deb ta'rif etgan.

M. Spanov<sup>24</sup> "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasining mohiyatini anglash uchun, dastavval, "rivojlanish", "barqarorlik" va "xavfsizlik" tushunchalari o'tasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash lozim. Ushbu tushunchalar iqtisodiy xavfsizlikning asosiy xususiyatlari, to'ldiruvchilari hisoblanadi. Agar milliy iqtisodiyot rivojlanmasa, u holda uning amal qilish imkoniyatlari, ichki va tashqi tahdidlarga qarshiligi, turli o'zgarishlarga moslashuvchanligi kamayadi, deya etirof etgan.

Davlatning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligi bu butun davlat tizimining muhim elementlaridir.

Barqarorlik bu mamlakatning iqtisodiy tizimi ichidagi tabiiy resurslardan foydalanish va yalpi ichki mahsulotni yaratish tartibdagi aloqalari, ushbu aloqalarning mustahkamligi, makroiqtisodiyotdagi ichki va tashqi moliyaviy inqirozlarga, iqtisodiy tahdidlarga (ya'ni sanksiyalarga) qarshi kurasha olish qobiliyatini ifodalaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik esa mamlakat tizimidagi iqtisodiy obyektlarning ichki va tashqi tahdidlar sharoitida yashay olish hamda rivojlanish qobiliyatiga egalik, ko'zda tutilmagan, aniqlanishi qiyin bo'lgan noxush omillar ta'siriga bardoshlilik holati, tabiiy resurslarni tashqi moliyaviy kuchlardan himoyalashni ifodalaydi.

Yuqoridaagi fikrlarga asoslangan holda, davlatning rivojlanishi, barqarorligi va xavfsizligi tushunchalarining o'zaro bir-biriga bog'lab umumiyl iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi bu milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, muntazam yangilanishda va o'z-o'zini yanada takomillashib borishda qodir va imkoniyatlari kengligini ta'minlovchi sharoit va omillar yig'indisi deb ta'riflashimiz mumkin.

Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik iqqisodiyotning turli subyektlariga tegishli bo'lib, ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik, biznes, davlat korxonalari, milliy iqqisodiyot va davlat.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shu bilan birga, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqidir. Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardashligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir xalqning rivojlanishi unda yashayotgan insonlarning intellektual mulki markaziy o'rinda turadi. Mazkur insonlarning ilmiy soloziyati shu jamiyatning tabiiy resurslaridan foydalanishi va yalpi ichki mahsulot yaratilishida kam resursdan foydalanib, yuqori darajada daromad olinishi ko'lami bilan belgilanadi.

Davlatning rivojlanishi shu jamiyatdagi tabiiy resurs, intellektual mulk himoya qilish bosh mezoni hisoblanadi. Ushbu fikrlarni asoslash uchun jahon hamjamiatida ko'plab misollar bor. Misol uchun:

Yaponiya davlati tabiiy boyliklari yo'q bo'lishiga qaramasdan, ular insonning intellektual mulkiga e'tibor qaratgan, natijasi barchamizga ma'lum.

Amerika davlati intellektual mulk himoya qobig'i rivojlangan, tabiiy reserslariga boy bo'lishiga qaramasdan ulardan samarali foydalanish natijasida o'zidagi ba'zi neft va boshqa konlarini ma'lum vaqtgacha ishlatmaslik tartibini joriy etgan. Natijada dunyoda eng boy va siyosati kuchli mamlakat hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining<sup>25</sup> 17-moddasida:

1. Har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega.
2. Hech kim zo'ravonlik bilan o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangan.

Biz Yuqoridaagi tadqiqot xulosalarimiz va mulkiy munosabatlar va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosida quyidagi takliflarni beldiramiz:

- O'zbekistonda har qanday mulkni himoya qilinishi bosh qomusimizga tarkibiga kiritilishi lozim.
- Tabiiy resurslardan foydalanish Senat qarorlari asosida foydalanishi huquqi belgilanishi zarur.
- Tabiiy resurslardan foydalanish Senat tomonidan ko'rib chiqilishi va nazorat qilish tartibi joriy etilsin.

23 O'sha manba.

24 Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, фармн//Трансфармационная экономика, 1998. – С. 3.

25 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrdan qabul va e'lon qilingan.



- Senat tarkibiga mamlakatimizdagи tajribali iqtisodchi olim va akademiklar kiritilsin.
- Mamlakatimizdagи mayjud barcha universitet va institatlarda "Iqtisodiy xavfsizlik" darslari joriy etilishi darkor.
- Mulk daxlsizligi to'g'risida, unga bog'liq qonun va hujjatlar muntazam takomillashtirish to'g'risidagi takiflar ijtimoiy internet tarmoqlarida e'lon qilish veb-saytlari ochilsin.

#### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulknинг kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-198-sonli Farmoni. 2022-yil 24-avgust.
3. Alovuddin Mansur. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. Qur'oni karimni o'rganish ilmiy markazi. – 2004. – 768 b.
4. Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining Konstitutsiyasi 1977-yil 7-oktyabrida 9-chaqiriq SSSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari 7-sessiyasida qabul qilingan.
5. AQSh Konstitutsiyasi Bill Huquqlari. Beshinchi tuzatish. 1791-yil 15-dekabrda
6. The Constitution of Japan promulgated on November 3, 1946, came into effect on May 3, 1947.
7. "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonun. 1990-yil 31-oktyabr
8. Abulqosimov H. Iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent, "Akademiya", 2006. – 221-b.
9. Гордиенко Д. В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учебно-метод пособие. – М.: Инфра-М. 2009.
10. Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, фармн//Трансфармационная экономика, 1998. – С. 3.
11. Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan.
12. Tohir Malik. Odamiylik mulki. – T.: "Sharq", 2014. – 936 b.
13. Avesto: Yasht kitobi. /M. Ishoqov tarjimasi. – T.: "Sharq", 2001. – 128 b.
14. Orziyev M. Z. Ergashev J. Y. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. /O'quv-uslubiy qo'llanma. – Buxoro, 2018. – 167 b.
15. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. – T.: Yangi asr avlod, 2014. – 272 b.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.